




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI



# KRIMINOLOGIK FAOLIYAT

ILMIY-AMALIY JURNAL

O'z.KTI

№2 - 2026 (7) ISSN: 3060-5024



KRIMINOLOGIK  
FAOLIYAT

ILMIY-AMALIY JURNAL

№2 / 2026 (7)

ISSN: 3060-5024

MUASSIS: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI

## Tahrir hay'ati raisi

**Berdialiyev Baxtiyor Erkinovich**  
Institut boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

## Tahrir hay'ati a'zolari

**Niyazmetov Ikrom Masharipovich**  
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi mas'ul xodimi, tahrir hay'ati raisi o'rinbosari

**Azim Shuhrat Obid o'g'li**  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

**Nigmatov Ruftullo Olimdjonovich**  
falsafa doktori, professor

**Sharafutdinov Alisher Ozodovich**  
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, dotsent

**Ismailov Isamiddin**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Turg'unov Murod Tursunbayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Niyozova Salomat Saparovna**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Zakirova Adina Gulyamovna**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Ziyodullayev Muzaffar Ziyodullayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Otajonov Abrorjon Anvarovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Ganiyev Sherzod Alisherovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Xujakulov Siyovush Baxtiyorovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Toshpulatov Akrom Ikromovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent

**Maxsodov Maqsatullo Ismatovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent

**Nurullayev Umid Kupalovich**  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Ollamov Yarash Yo'ldoshevich**  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Nurumbetova Sadoqat Allayarovna**  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Mirzayev Jahongir Umirzakovich**  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

**Matchanov Ruslanbek Azatovich**  
pedagogika fanlari doktori, dotsent

**Yernazarov Solijon Yerkinovich**  
iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Yarov Bekmamat Alikulovich**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, bosh muharrir

## MUNDARIJA

### KRIMINOLOGIK TAHLIL VA NAZARIY-METODOLOGIK YONDASHUV

<b>Berdialiyev B.E.</b> Ijtimoiy profilaktika samaradorligini baholashning kriminologik mezonlari	3
<b>Якубов А.С., Азим Ш.О.</b> Первый уголовный кодекс независимого Узбекистана: тридцать лет функционирования (I часть)	8
<b>Adilkariyev X.T., Umirzakov B.A.</b> Kriminologik prognozlashning mahalladagi jinoyatlarni barvaqt oldini olish mexanizmidagi o'rni	15
<b>Berdialiyev B.E., Ollamov Ya.Y.</b> Ichki ishlar organlari va ular xodimlarining imijini oshirish: nazariy-metodologik yondashuvlar	20
<b>Murodov B.B., Abdullaev A.Y.</b> So'roq qilishdagi protsessual bo'shliqlarning jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlashga ta'siri: muammo va yechimlar	29
<b>Bobomurodov F.B.</b> Kiberjinoyatchilikning oldini olishda tezkor-qidiruv tadbirlarini huquqiy tartibga solish: kriminologik tahlil	36
<b>Payziyev D.Yu., Rasulev A.A.</b> Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarni yoki ularning analoglarini qonunga xilof ravishda tayyorlash, ishlab chiqarish va qayta ishlash tushunchalarining o'zaro munosabati	44
<b>To'rayev I.E.</b> Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashishda ilmiy tadqiqotlarning ahamiyati	49
<b>Mirzayev J.U., Abduxamidov G.Z.</b> Ichki ishlar organlarida strategik rejalashtirishning ahamiyati	55
<b>Исаев С.А.</b> Криминологическая характеристика личности преступника совершающего преступления, связанные с незаконным оборотом огнестрельного оружия	60
<b>Nazarova L.G.</b> Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi: holati, tendensiyalari va profilaktik ahamiyati	67
<b>Boliyev U.U.</b> Mahallalarda jamoat tartibini ta'minlashning huquqiy asoslari: tizimli-kriminologik tahlil	71
<b>XORIJIY TAJRIBA</b>	
<b>Nigmatov R.O.</b> Buyuk Britaniya mahalliy tuzilmalarining jinoyatlarni oldini olish tizimidagi o'rni va O'zbekiston amaliyotiga tatbiq etish imkoniyatlari	76

Tahririyat manzili:  
100187, Toshkent shahri  
Mirzo Ulug'bek tumani  
Buyuk ipak yo'li ko'chasi, 243  
Tel.: +998 (71) 231-39-77  
Elektron pochta: kti@iiv.uz  
Website: kti.iiv.uz

© O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti  
Jurnal 2024-yil 21-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan C-5669658 raqami bilan ro'yxatga olingan.  
O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2025-yil 12-fevraldagi 367/5-son qarori bilan yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatiga kiritilgan.

## GIYOHVANDLIK VOSITALARI, PSIXOTROP MODDALARNI YOKI ULARNING ANALOGLARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA TAYYORLASH, ISHLAB CHIQRISH VA QAYTA ISHLASH TUSHUNCHALARINING O'ZARO MUNOSABATI



**PAYZIYEV**  
Dilshat Yuldashbayevich

O'zbekiston Respublikasi  
Kriminologiya tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi,  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent



**RASULEV**  
Akbar Alisherovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi  
Jinoyat huquqi kafedrasi dotsenti,  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki ularning analoglarini qonunga xilof ravishda tayyorlash, ishlab chiqarish va qayta ishlash tushunchalarining jinoiy-huquqiy mazmuni tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligining qiyosiy tahlili asosida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni tayyorlash, ishlab chiqarish hamda qayta ishlash harakatlarining huquqiy tabiati ochib berilgan. Muallif tomonidan ushbu harakatlarni kvalifikatsiya qilish mezonlari taklif qilinib, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qayta ishlash tushunchasiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, analoglar, tayyorlash, ishlab chiqarish, qayta ishlash, jinoyat tarkibi, kvalifikatsiya, jinoyat qonunchiligi, sud amaliyoti, qiyosiy huquqshunoslik.

**Аннотация.** В настоящей статье проанализировано правовое содержание понятий незаконного изготовления, производства и переработки наркотических средств, психотропных веществ либо их аналогов. Также, на основе сравнительно-правового анализа уголовного законодательства зарубежных государств раскрыта правовая природа действий по изготовлению, производству и переработке наркотических средств и психотропных веществ. Автором предложены критерии квалификации данных деяний и разработано авторское определение понятия переработки наркотических средств или психотропных веществ.

**Ключевые слова:** наркотические средства, психотропные вещества, аналоги, изготовление, производство, переработка, состав преступления, квалификация, уголовное законодательство, судебная практика, сравнительное правоведение.

**Abstract.** This article examines the criminal-law content of the concepts of the unlawful manufacture, production, and processing of narcotic drugs, psychotropic substances, and their analogues. Furthermore, based on a comparative analysis of foreign criminal legislation, the legal nature of the acts of manufacture, production, and processing of narcotic drugs and psychotropic substances is revealed. The article proposes criteria for the legal qualification of such acts and develops an author's definition of the concept of processing narcotic drugs or psychotropic substances.

**Keywords:** narcotic drugs, psychotropic substances, analogues, manufacture, production, processing, elements of a crime, legal qualification, criminal legislation, judicial practice, comparative criminal law.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki ularning analoglari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlarga qarshi kurash samaradorligi ushbu jinoyatlarni tashkil qiluvchi belgilarning mazmunini qonun chiqaruvchi tomonidan nazarda tutilgan ma'noda tushunish va amaliyotda bir xil qo'llash bilan bog'liq.

Huquqni qo'llash amaliyotida giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda tayyorlash tushunchasi bilan bog'liq muammolar mavjud emas, chunki O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida" 2017-yil 28-aprel qarorida, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda tayyorlash tushunchasiga tushuntirish berilganligi, uni bir xil qo'llash imkonini beradi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida" 1999-yil 19-avgustdagi qonunida, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi deganda, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni olib kirish (olib chiqish), tranzit tarzida o'tkazish, saqlash, berish, realizatsiya qilish, taqsimlash, olish, tashish, jo'natish, ishlab chiqarish, tayyorlash, ulardan foydalanish va ularni yo'q qilish, shuningdek tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan o'simliklarni yetishtirish tushuniladi [1]. Ya'ni ushbu qonunda, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalari va prekursorlarning muomalasini ularni tayyorlash bilan bir qatorda, ishlab chiqarish ham tashkil etadi. Biroq, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining (keyingi o'rinlarda – JK) 273-moddasida jinoiy qilmish sifatida, giyohvandlik vositalari, ularning analoglarini yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda tayyorlash va qayta tayyorlash (4-qism), 274-moddasida jinoyat predmetlarini ishlab chiqarishning belgilangan qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik belgilangan.

Ushbu holat, JKning 273-moddasidagi jinoyat predmetlarini tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularni ishlab chiqarish tushunchalarining o'zaro munosabatini aniqlash zaruratini vujudga keltirmoqda.

Yuqorida ko'rsatilgan qonunda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalari va prekursorlarni tayyorlash yoki ishlab chiqarish tushunchalari ishlatilsa-da, biroq ularni mazmuni yoritilmagan.

Shu o'rinda huquqshunos olimlarning fikrlariga murojaat qiladigan bo'lsak, professor M.X. Rustambayevning ta'kidlashicha, tayyorlash deganda, pirovard natijada giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar hosil qilishga qaratilgan har qanday harakat, shuningdek, tegishli ruxsatnomasiz narkotiklarni to'yintirish va narkotik moddaning ta'sir kuchini oshirish maqsadida ularni qayta ishlash va tozalash (begona aralashmalardan xoli qilish) tushunilishi lozim. Foydalanish uchun tayyor holatdagi giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni surunkali ravishda olishga qaratilgan harakatlar ularni ishlab chiqarish hisoblanadi [2].

Sud-tergov amaliyotida shakllantirilgan mazkur tushunchalar O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida" 2017 yil 28 aprel qarorining 12 va 13-bandlarida o'z aksini topgan.

Unga muvofiq, ko'rilayotgan jinoyat predmetlarini ishlab chiqarish deganda, bunday vosita yoki moddalarni qonunchilikni buzgan holda o'simliklar, kimyoviy va boshqa moddalardan seriyalab (ko'plab) olishga qasddan qaratilgan harakatlar (masalan, maxsus kimyoviy yoki boshqa uskunalardan foydalangan holda, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni shu maqsadlarga moslashtirilgan binolarda ishlab chiqarish, ularni guruhlab, qadoqlab ishlab chiqarish) tushunilishi lozim.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda tayyorlash deganda esa, qonunchilikni buzgan holda tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan o'simliklardan, dorivor, kimyoviy va boshqa moddalardan foydalanish yoki iste'mol qilishga tayyor bir yoki bir necha giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar olinishi tushunilishi lozim [3].

Jkning 273-moddasida ishlab chiqarish iborasi mavjud emasligi, sud-tergov organlari tomonidan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni tayyorlash tushunchasi turlicha talqin qilinishiga

sharoit yaratmoqda. Masalan, hozirgi tahrirdagi JKning 273-moddasida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarini qonunga xilof ravishda tayyorlash tushunchasi, ularni ko'plab ishlab chiqarish holatlarini ham qamrab oladi. Lekin, bunday sharoitda, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni takroran tayyorlash bilan ularni umumiy qasd bilan qamrab olinadigan ko'plab ishlab chiqarish holatlarini bir-biridan farqlash muammosi vujudga keladi.

Bizning fikrimizcha, jinoyat predmetlarini qonunga xilof ravishda tayyorlash bilan ularni ishlab chiqarish tushunchalarini bir xil ko'rish to'g'ri bo'lmaydi. Shuning uchun, Oliy sud Plenumining yuqorida keltirilgan tushuntirishlaridan kelib chiqqan holda, giyohvandlik vositalarni yoki psixotrop moddalarni ishlab chiqarish va tayyorlashni o'zaro farqlash lozim.

Ishlab chiqarishga xos belgilardan biri – bu jinoyat predmetlarini seriyalab (ko'plab) olishga qasddan qaratilgan harakatlar. Seriyalab (ko'plab) olish deganda, bir turdagi yoki umumiy birlashtiruvchi belgilarga ega bo'lgan predmetlarni ko'plab tayyorlash tushuniladi.

Oliy sud Plenumi yana bir belgi sifatida giyohvandlik vositalar yoki psixotrop moddalarni maxsus kimyoviy yoki boshqa uskunalardan foydalangan holda, ularni shu maqsadlarga moslashtirilgan binolarda ishlab chiqarish, ularni guruhlab, qadoqlab ishlab chiqarishni ko'rsatgan.

Demak, ko'rilayotgan jinoyatning predmetlarini ishlab chiqarishda, ayblanayotgan shaxsning harakatlari umumiy qasd bilan qamrab olingan bo'lib, jinoyat predmetlarini maxsus moslashtirilgan joylar (laboratoriyalar)da yoki maxsus uskunalaridan foydalanib, seriyalab (ko'plab) tayyorlash nazarda tutiladi. Tayyorlashda esa, Oliy sud Plenumining qaroriga muvofiq, iste'mol qilishga tayyor bir yoki bir necha giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar olinishi tushuniladi. Ya'ni, bitta yoki bir necha alohida, mustaqil epizodlarni tashkil etuvchi iste'mol qilishga tayyor giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni olish holatlari nazarda tutiladi.

Ushbu masala doirasida xorijiy davlatlarning jinoyat qonunchiligini o'rganilganda, Gruziya (JKning 260-m.) [4], Moldova (JKning 217-1-m.) [5], Ozarbayjon (JKning 234.2-m.) [6], Tojikiston

(JKning 200-m.) [7], Ukraina (JKning 307-m.) [8], Fransiya (JKning 225-35-m.) [9], Qirg'iziston (JKning 267-m.) [10] kabi davlatlarning jinoyat qonunchiligida giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalar yoki prekursorlarni ishlab chiqarish yoki tayyorlash harakatlari jinoyat tarkibini muqobil qilmishlari sifatida nazarda tutilganligi aniqlandi.

Armaniston (JKning 266-m.) [11], Belarus (JKning 328-m.) [12], Yaponiya (JKning 136-m.) [13] jinoyat qonunchiligida, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi singari, ko'rilayotgan jinoyat predmetlarini tayyorlash uchun javobgarlik belgilangan.

Ispaniya (JKning 368-m.) [14], Koreya (JKning 198-m.) [15], Rossiya Federatsiyasi (JKning 228.1.-m.) [16] davlatlarida esa giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalari yoki prekursorlarni ishlab chiqarish uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Shu bilan birga, Rossiya Federatsiyasi JKning 228-moddasida (Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki ularning analoglarini qonunga xilof ravishda olish, saqlash, tashish, tayyorlash, qayta ishlab chiqarish, shuningdek, tarkibida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bo'lgan o'simliklarni yoki ularning qismlarini qonunga xilof ravishda olish, saqlash, tashish) ko'rilayotgan jinoyat predmetlarini o'tkazish maqsadini ko'zlamay ularni tayyorlash uchun javobgarlik belgilangan. Ya'ni, Rossiya qonun chiqaruvchisi, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki prekursorlarni ishlab chiqarish yoki ularni tayyorlash harakatlari jinoyat sodir etish maqsadidan kelib chiqqan holda belgilagan. Qonun chiqaruvchining jinoyat obyekti tomonini tashkil etuvchi qilmishlarni bunday tarzda differentsiatsiya qilishi mantiqan to'g'ri deb hisoblaymiz. Chunki, faqatgina o'tkazish maqsadi mavjud bo'lgan hollardagina jinoyat predmetlari seriyalab (ko'plab) ishlab chiqarilishi mumkin. Bir yoki bir necha iste'mol qilishga tayyor giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni tayyorlash esa, faqatgina aybdor shaxsning o'z ehtiyojini qondirishi uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin.

Tayyorlash harakatlari iste'mol uchun tayyor bo'lgan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarning hech bo'lmaganda bitta dozasi tayyorlangan paytdan boshlab tugallangan hisoblanadi.

Keltirilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qayta

ishlash tushunchasi mavjud emas. Bu holat ham sud-tergov amaliyotida ko'rilayotgan jinoyat predmetlarini tayyorlash bilan farqlashda bir qator qiyinchiliklar tug'dirmoqda.

Yuridik adabiyotlarda giyohvandlik vositalarni, psixotrop moddalarni qayta ishlab chiqarishga turli yondashuvlar mavjud.

Masalan, M.X. Rustambayev, N.V. Xamskiy, S.P. Novoselov va D.K. Chirkovning fikrlariga ko'ra, ushbu vosita va moddalarni qayta ishlab chiqarishni tayyorlashning bir turi hisoblanadi.

Ayrim mualliflar, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda qayta ishlab chiqarish deganda, qonunga xilof ravishda tarkibida bir yoki bir nechta giyohvandlik vositalar yoki psixotrop moddalar bo'lgan qattiq yoki suyuq qorishmadagi aralashmalarni tozalash yoxud bunday aralashma (preparat)da giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarning to'yinganlik darajasini ko'paytirish, shuningdek bunday aralashmalarning faolligini oshirish yoki inson organizmiga bo'lgan ta'sirini kuchaytirish maqsadida farmakologiya jihatidan faol bo'lgan boshqa moddalar bilan aralashtirishdan iborat qasddan sodir etiladigan harakatlar tushuniladi. Tarkibida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bo'lgan o'simliklarni qaynatib bug'lantirish, aralashmalardan tozalash, bug'ga aylantirish va boshqa qo'shimcha ishlov bermasdan, ya'ni moddaning tuzilishini o'zgarishiga olib kelmaydigan maydalash, quritish yoki suv bilan surtish va boshqa shunga o'xshash harakatlar giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni tayyorlash

tushunchasini hosil qilmaydi, deb ta'kidlashadi [17].

L.E. Chistovaning fikricha, giyohvandlik vositalarini qayta ishlab chiqarish, ko'p hollarda, ularni tayyorlash bilan adashtiriladi, biroq, ular mustaqil g'ayriqonuniy harakat hisoblanadi.

Tayyorlashning qayta ishlab chiqarishdan farqi shundaki, giyohvandlik vositalarini tayyorlashda, boshlang'ich ashyo sifatida Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarning ro'yxatiga kiritilmagan moddalardan foydalaniladi (bir vaqtning o'zida giyohvandlik vosita hisoblangan ayrim o'simliklar, shuningdek, 4-ro'yxatga kiritilgan barcha prekursorlar bundan mustasno). Qayta ishlab chiqarishda esa, tayyor giyohvandlik vositasi yoki psixotrop moddani aralashmalardan tozalash orqali ularning ta'sir kuchini oshiriladi [18].

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qayta ishlab chiqarish deganda, O'zbekiston Respublikasida nazoratga olingan muomalasi taqiqlangan yoki cheklangan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarning qattiq yoki suyuq qorishmadagi aralashmalarini tozalash yoxud bunday aralashma (preparat)da giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarning to'yinganlik darajasini ko'paytirish, shuningdek bunday aralashmalarning faolligini oshirish yoki inson organizmiga bo'lgan ta'sirini kuchaytirish maqsadida farmakologiya jihatidan faol bo'lgan boshqa moddalar bilan aralashtirishdan iborat harakatlar tushuniladi, degan xulosaga kelish mumkin.

#### Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi qonuni. 1999-yil 19-avgust, 813-I-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. Elektron manba: LexUZ. <https://lex.uz/docs/3203265>
2. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi. V tom. Maxsus qism. Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar. Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar. Oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. – T.: "ILM ZIYO", 2011. – B. 140.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida" 2017-yil 28-apreldagi 12-sonli qarori [Elektron manba]. Kirish yo'li: <https://lex.uz/docs/3203265>
4. Уголовный кодекс Грузии от 22 июля 1999 года (Контрольный текст по состоянию на 1.10.2019г.). URL: <https://matsne.gov.ge/ru/document/view/16426?publication=212>.
5. Уголовный кодекс Республики Молдова от 18 апреля 2002 года № 985-XV (с изменениями и дополнениями по состоянию на 06.06.2024 г.) URL: [https://online.zakon.kz/Document/?doc\\_id=30394923](https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30394923)

6. Уголовный кодекс Азербайджанской Республики (с изменениями и дополнениями по состоянию на 27.12.2024 г.) URL: [https://continent-online.com/Document/?doc\\_id=30420353](https://continent-online.com/Document/?doc_id=30420353)
7. Уголовный кодекс Республики Таджикистан от 21 мая 1998 года № 574 (с изменениями и дополнениями по состоянию на 20.06.2024 г.) URL: [https://continent-online.com/Document/?doc\\_id=30397325](https://continent-online.com/Document/?doc_id=30397325)
8. Уголовный кодекс Украины от 5 апреля 2001 года № 2341-III (с изменениями и дополнениями по состоянию на 05.06.2020 г.) URL: [http://continent-online.com/Document/?doc\\_id=30418109#pos=2633;-45](http://continent-online.com/Document/?doc_id=30418109#pos=2633;-45)
9. Уголовный кодекс Франции. URL: <https://constitutions.ru/?p=25017>
10. Уголовный Кодекс Кыргызской Республики от 28 октября 2021 года № 127 (с изменениями и дополнениями по состоянию на 19.02.2025 г.) URL: [https://online.zakon.kz/Document/?doc\\_id=36675065](https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=36675065)
11. Уголовный кодекс Армении (с изменениями и дополнениями по состоянию на 23 декабря 2022 г.) URL: <https://hrlib.kz/document/176585>
12. Уголовный кодекс Республики Беларусь от 9 июля 1999 года № 275-3 (с изменениями и дополнениями по состоянию на 11.11.2019 г.) URL: [https://online.zakon.kz/document/?doc\\_id=30414984#pos=2756;-48](https://online.zakon.kz/document/?doc_id=30414984#pos=2756;-48)
13. Уголовный кодекс Японии. URL: <https://constitutions.ru/?p=407>
14. Уголовный кодекс Испании. URL: [https://artlibrary2007.narod.ru/kodeks/ispanii\\_uk.doc](https://artlibrary2007.narod.ru/kodeks/ispanii_uk.doc)
15. Уголовный кодекс Республики Корея. URL: <https://vseokoree.com/vse-o-koree/zakony-i-normativnyye-pravovye-akty/ugolovnyj-kodeks-respubliki-koreya>
16. Уголовный кодекс Российской Федерации от 13 июня 1996 года № 63-ФЗ (с изменениями и дополнениями по состоянию на 28.02.2025 г.) URL: [https://online.zakon.kz/Document/?doc\\_id=30397073](https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30397073)
17. Уголовное право России. Общая и Особенная части: Учебник / Под ред. д-ра юрид. наук, проф. В.К. Дуюнова. – М., 2008. – С. 520.
18. Л.Е. Чистова. Переработка наркотических средств. ее отличие от их изготовления./ Международный научный журнал «Инновационная наука», 2015, №11. – Б. 199.



## GIYOHVANDLIK VA NARKOJINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA ILMIIY TADQIQOTLARNING AHAMIYATI



TO'RAYEV

Ilxomjon Esanovich

O'zbekiston Respublikasi

Kriminologiya tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi,  
tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya.** Maqolada zamonaviy dunyoda giyohvandlik va narkojinoyslarga qarshi kurashishda ilmiy tadqiqotlarning strategik ahamiyati tahlil qilgan. Narkobiznesning globalashuvi va raqamlashuvi sharoitida huquqni muhofaza qilish, tibbiyot, psixologiya va IT sohalarining integratsiyalashuvi zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, yangi turdagi sintetik moddalarni aniqlash, kibermakondagi narkosavdoga qarshi kurashish va ilmiy asoslangan reabilitatsiya usullarini joriy etish bo'yicha qator amaliy takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** giyohvandlik, narkojinoysi, ilmiy tadqiqot, profilaktika, kiberkriminologiya, reabilitatsiya, sintetik narkotiklar.

**Аннотация.** В статье анализируется стратегическая роль научных исследований в борьбе с наркоманией и наркопреступностью в современном мире. Обосновывается необходимость интеграции правоохранительной деятельности, медицины, психологии и IT-технологий в условиях глобализации и цифровизации наркобизнеса. Выдвинут ряд практических предложений по выявлению новых видов синтетических веществ, противодействию наркоторговле в киберпространстве и внедрению научно обоснованных методов реабилитации.

**Ключевые слова:** наркомания, наркопреступность, научные исследования, профилактика, киберкриминология, реабилитация, синтетические наркотики.

**Abstract.** This article analyzes the strategic role of scientific research in combating drug addiction and drug-related crimes in the modern world. The author emphasizes the necessity of integrating law enforcement, medicine, psychology, and IT sectors amidst the globalization and digitalization of the drug business. A number of practical proposals are put forward for identifying new types of synthetic substances, countering drug trafficking in cyberspace, and implementing evidence-based rehabilitation methods.

**Keywords:** Drug addiction, drug crime, scientific research, prevention, cyber-criminology, rehabilitation, synthetic drugs.

**H**ozirgi globalashayotgan dunyoda insoniyat xavfsizligiga jiddiy tahdid solayotgan giyohvandlik va u bilan bog'liq transmilliy jinoyatchilik alohida dolzarblik kasb etmoqda. Mashhur sotsiolog Manuel Kastels ta'kidlaganidek, "global jinoiy tarmoqlar davlat chegaralarini mensimaydi va eng zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, an'anaviy nazorat tizimlaridan ustun kelishga intiladi" [1].

Shu bois, giyohvandlik muammosini kompleks jarayon sifatida tadqiq etish zarurati yuzaga kel-

moqda. Bunda tibbiyot, psixologiya va yurisprudentsiya fanlarining interdisciplinar integratsiyasi muhim. Xususan, amerikalik psixiatr, neyrobiolog, AQSH Milliy sog'liqni saqlash institutlari tarkibidagi Narkotiklarni suiiste'mol qilish bo'yicha milliy institut (ingl. National Institute on Drug Abuse – NIDA) direktori, tibbiyot fanlari doktori Nora Dolores Volkova ilmiy izlanishlarida isbotlaganidek, "qaramlik – bu irodasizlik emas, balki miyaning mukofot tizimidagi chuqur kimyoviy o'zgarishlar natijasida kelib chiqadigan surunkali